

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHALIYEV QAHRAMON BOBOYOROVICH

**O'RTA OSIYO DAXMALARI
(Shimoliy Baqtriya misolida)**

**07.00.01-O'zbekiston tarixi
07.00.06 – Arxeologiya**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Toshaliyev Qahramon Boboyorovich

О‘рта Osiyo dakhmalari (Shimoliy Baqtriya misolida).....5

Тошалиев Кахрамон Бобоёрович

Дахмы Средней Азии (на примере Северной Бактрии).....23

Toshaliyev Qahramon Boboyorovich

Dakhmas of Central Asia (on the example of Northern Bactria).....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHALIYEV QAHRAMON BOBOYOROVICH

**OʻRTA OSIYO DAXMALARI
(Shimoliy Baqtriya misolida)**

**07.00.01-Oʻzbekiston tarixi
07.00.06 – Arxeologiya**

**Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar434 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portal (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shaydullayev Shapulat Bozorovich
tarix fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Rustam Hamidovich Suleymanov
tarix fanlari doktori, professor

Mirsodiq Mirsultonovich Is'hoqov
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Urganch davlat universiteti


Dissertatsiyasi himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «5»⁰¹ kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.:(99876) 223-13-11; e-mail: termizdu@umail.uz


Dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (239 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy).Tel/faks: 03762217690

Dissertatsiyasi avtoreferati 2023 yil «23» dekabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «25» oktyabr dagi 26 raqamli reyestr bayonnomasi bilan).




S.N. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor


H.E. Xolmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
t.f.d, dotsent.


E.O. Qobulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d. professor.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tarixshunosligida qadimgi xalqlarning ijtimoiy hayoti, ma'naviy olami, diniy va mifologik qarashlarini yoritishda dafn marosimlari va dafn bilan bog'liq inshootlar, xususan daxmalarni tadqiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ilk jahon dini – zardushtiylikning vatani va shakllanish davri hamda tarqalish jug'rofiyasini o'rganishda zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan daxmalarining asosiy moddiy manba sifatidagi ahamiyati tan olingan ilmiy haqiqatdir. O'zbekistonning janubi (Shimoliy Baqtriya) va markaziy (So'g'diyona) hududlarida qabrlarning uchramasligi, ilk zardushtiylikka xos toshlardan yasalgan yoki tabiiy tosh qoyalardan foydalanilgan dafn inshooti — daxmalarning keng tarqalishi bilan bog'liqdir.

Jahonning Angliya, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Rossiya, Italiya, AQSh kabi davlatlarining yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan O'rta Osiyo xalqlari qadimgi diniy qarashlari va evolyutsiyasiga oid masalalar keng tadqiq etilmoqda. O'rta Osiyo zardushtiylik dinining vatani ekanligiga oid qarashlar fanda o'z o'rniga ega bo'lgan bo'lsa-da, uning moddiy asosini isbotlash maqsadida bir qancha arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Shu jihatdan, zardushtiylik dinining mafkurasi va o'ziga xos xususiyatlarini dafn inshootlari – daxmalar asosida o'rganish mazkur tadqiqot mavzusining xalqaro miqyosdagi dolzarbligini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar yurtimiz tarixining o'rganilmagan sahifalarini yoritishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda Shimoliy Baqtriya hududida Kuchuk I davriga oid ko'plab yodgorliklar aniqlandi. Arxeologik yodgorliklarni asrash va arxeologiya tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilib, shu asnoda arxeologik qazishmalar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqot natijasi O'zbekistonning janubiy hududlarida qadimgi davrlar diniy xarakteri, dafn inshootlari, xususan daxmalar bilan bog'liq dolzarb vazifalarni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2018 yil 16-yanvardagi F-5181-son 5181-son "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishi va shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika axborotlashgan fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuga aloqador adabiyotlar va olib borilgan tadqiqotlar muammoviy — mavzuviy yondashuv bo‘yicha 2 turga bo‘lib o‘rganildi:

1. Shimoliy Baqtriyaning ilk temir davri daxmalariga bag‘ishlangan asarlar;

2. Ilk temir davri daxmalarining O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rniga bag‘ishlangan asarlar.

Birinchi turga oid adabiyotlarda Janubiy O‘zbekiston xususan Ko‘hitangtog‘ etaklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari haqida so‘z boradi. Jumladan, O‘zbekiston – Chexiya, O‘zbekiston-Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiya tadqiqotlarida o‘rganilayotgan daxmalar va ular bilan bog‘liq muammolarning yechimi talqin qilingan¹.

Ikkinchi turga oid adabiyotlarda esa daxmalarning hudud bo‘ylab yoyilishi va evolyutsiyasi haqida hamda Ko‘hitangtog‘ hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritilgan topilmalar xususida so‘z boradi².

“Avesto” davri arxeologiyasi va Ko‘hitangtog‘ hududlari xalqlari etnologiyasi hamda dafn marosimlari tadqiqotchilar tomonidan jadal o‘rganib kelingan. Jumladan arxeologik tadqiqotlarda K.Inostransev³, M.Boys⁴, F.Grene⁵, S.Tolstov⁶, Y.Rapoport⁷, V.Masson⁸, V.Sarianidi⁹, A.Asqarov¹⁰, Y.Zadneprovskiy¹¹,

¹ Šajdullaev Š.B. Untersuchungen zur frühen Eisenzeit in Nordbaktrien // AMIT. Band 34. – Berlin. 2002; Станчо Л., Шайдуллаев Ш. Пещера Капгар Камар в Кугитанге: первообследование 2016 г. // V otchete Preliminary report on the activities of the Joint Czech-Uzbek archaeological expedition in Pashkhurt valley, southern Uzbekistan in season 2016. Excavation at Burgut Kurgan and surface survey at around villages of Kayrit, Zarabag, Karabag and Kampyrtepa by Ladislav Stanco, Shapulat Shaydullayev, Jan Kycela, Anna Augustinova in cooperation with Odiljon Khamidov, Jakub Havlik, Michal Mrva, Ladislav Damasek, Ginevra Palmeri, Petra Cejnarova, Tomáš Smělý and Klára Paclíková. — Prague – Termez. 2017.

² Shaydullayev Sh., Toshaliyev Q. “Avesta” davri arxeologiyasida ko‘k rang ifodasi // O‘zbekiston arxeologiyasi. № 1 (26) 2022; Toshaliyev Q. Ko‘hitangtog‘ dahmalari // “Qadimiy Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida (siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot)” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, «vneshinvestprom», 2019.

³Иностранцев К. К истории домусульманской культуры Средней Азии // ЗВОРАО, 1917. Т. 24; Иностранцев К. К изучению оссуариев // ЗВОРАО, 1907. Т. 18; Иностранцев К. О древнеиранских погребальных обычаях и постройках // Журнал Министерства народного просвещения, 1909.

⁴Бойс М. Зороастрийцы: верования и обычаи. – Москва, Наука, 1988; Boyce M. A. History of Zoroastrianism. Vol. 1. The Early Period. Leiden-Koln, 1975.

⁵Грене Ф. Интерпретация декора оссуариев из Биянаймана и Мианкаля // В сб.: Городская культура Бактрии-Тохаристана и Согда. Античность, раннее средневековье. Материалы Советско-французского коллоквиума. – Ташкент, 1987.

⁶Толстов С.П., Древний Хорезм. – Москва, 1948; Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва. 1948; Толстов С.П., Итина М.А. Проблема суярганской культуры // - СА. -1960. -№1.

⁷Рапопорт Ю.А., Некоторые вопросы сложения зороастрийской погребальной обрядности (по археологическим данным) // XXV Международный конгресс востоковедов. Доклады делегации СССР. – Москва, 1960; Рапопорт Ю.А. Из истории религии Древнего Хорезма (оссуарии). – Москва, 1971.

⁸Массон В.М., Древнеземледельческая культура Маргианы. – Москва. – Ленинград 1959 (Материалы и исследования по археологии СССР. №73); Масимов И.С., Удеумурадов Б.Н. Новые материалы по раннежелезному веку низовий Мургаба // Туркменистан в эпоху раннежелезного века. Ответственные редакторы В. М. Массон, Е. Атагарьев. — Ашхабад, 1984; Массон В.М., Первые цивилизации. – Москва, Наука, 1989.

⁹Сарианиди В.И., Задолгодо Заратуштры (Археологические доказательства протозороастризма в Бактрии и Маргиане), — Москва, 2010; Сарианиди В.И., Древние земледельцы Афганистана. – Москва, 1977.

¹⁰Аскарлов А.А., К вопросу о происхождении культуры племен с расписной керамикой эпохи поздней бронзы и раннего железа. – Этнография и археология Средней Азии. – Москва, 1979; Аскарлов А.А., Альбаум Л.И., Поселение Кучуктепа. –Ташкент, 1979; Аскарлов А.А., Аминов В.С., Рахманов У.В., Новые данные о поселении

A.Sagdullayev¹², R.Suleymanov¹³, X. Duke¹⁴, G. Pugachenkova¹⁵, B. Matboboyev¹⁶, B.Litvinskiy¹⁷, Sh.Shaydullayev¹⁸, J.Lyuiye¹⁹, O. Xamidov²⁰, etnografiyasi esa K.Kubakov²¹, N.Borozna²², B.Karmisheva²³, K.Nasriddinov²⁴, S.Tursunov²⁵, E.Qobulov²⁶, I.Umarov²⁷ va boshqalarning tadqiqotlarida ancha keng yoritilgan.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar ushbu mavzuning ayrim jihatlarini o‘rganishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Shimoliy Baqtriya daxmalari

Кучуктепа // ОНУ-1978. Вып. 11; Аскарлов А.А., Аминов В.С., Исследования Шерабадского отряда // АО-1978. – Москва, 1979.

¹¹Заднепровский Ю.А., Ошское поселение к истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек, 1997; Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х., Основные итоги изучения Чустского поселения в Фергане (1950-1982) // ИМКУ, №19. 1984.

¹²Сагдуллаев А.С., “Авесто”да акс этган диний маросимлар тарихини ўрганишда археологик маълумотлар // “Авесто” ва унинг инсон тараққиётидаги ўрни. – Тошкент-Урганч, 2001. -Б. 21; Сагдуллаев А.С. Археологические данные к изучению ранних культовых обрядов, нашедших отражение в Авесте // “Авеста” и его место в истории развития человечества. – Ташкент-Урганч, 2001. – С. 78-81; Сагдуллаев А.С., Усадьбы древней Бактрии. – Ташкент, 1987.

¹³Сулейманов Р.Х., Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в до н.э. – VII н.э. - Самарканд-Ташкент, 2000; Сулаймонов Р., Нахшаб — унутилган тамаддун сирлари. – Тошкент, 2004.

¹⁴Дуке Х., Новый могильник тюркского времени в Южном Узбекистане // Успехи среднеазиатской археологии. Выпуск 3. – Ленинград, 1975.

¹⁵Пугаченкова Г.А., Работы в Шурчинском районе Узбекской ССР // АО. 1972. – Москва. 1973; Пугаченкова Г.А., Работы Узбекстанской искусствоведческой экспедиции //АО. 1971. – Москва, 1972. Пугаченкова Г.А., Новые данные о художественной культуре Бактрии. Из истории античной культуры Узбекистана. – Ташкент. 1973.

¹⁶Матбабаев Б.Х., Локальные варианты чустской культуры Ферганы. АКД. – Ленинград 1985; Матбобоев Б.Х., Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик маъбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд 2009.

¹⁷Литвинский Б.А., Седов А.В. Тепаи шах. Культура и связи кушанской Бактрии. – Москва. 1983; Литвинский Б.А., Кангюйско-сарматский фарн (к историко-культурным связям племен южной России и Средней Азии). – Душанбе, 1968.

¹⁸Шайдуллаев Ш.Б., Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Ташкент, 2000; Šajdullaev Š.B. Untersuchungen zur frühen Eisenzeit in Nordbaktrien // AMIT. Band 34. – Berlin, 2002; Станчо Л., Шайдуллаев Ш. Пещера Каптар Камарв Кугитанге: первообследованиев 2016 г.// Вотчете Preliminary report on the activities of the Joint Czech-Uzbekarchaeological expeditionin Pashkhurt valley, southern Uzbekistan in season 2016. Excavationat Burgut Kurganan dsurfacesurveyataround villages of Kayrit, Zarabag, Karabagand Kampyrtepa by Ladilav Stanco, Shapulat Shaydullayev, Jan Kycela, Anna Augustinova incooperationwith Odiljon Khamidov, Jakub Havlik, Michal Mrva, Ladislav Damasek, Ginevra Palmeri, Petra Cejnarova, Tomáš Smělý and Klára Paclíková. – Prague – Termez. 2017.

¹⁹Бендесу-Сармиенто Х., Люилье Ж., Мустафакулов С., Рахимов К., Погребальная практика населения раннего железного века: новые находки из Джаркутана в Северной Бактрии // Вестник МИЦАИ, выпуск 22, 2015.

²⁰Хамидов О.А., Шимолий Бактриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020; Шайдуллаев Ш.Б., Станчо Л., Хамидов О.А., Августинова А., Ҳавлик Я., Ҳавликова Ҳ., Цейнарова П., Вотроубекова Т., Дамашек Л., Бек Т., Кмошек М.,Мах П. Ўзбекистон-Чехия халқароархеологик экспедициясининг 2018 йилда Сурхондарё вилоятида олиб борган археологик тадқиқотлари // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2018-2019 йиллар. 12-сон. – Самарқанд, 2020 (2021).

²¹Кубаков К., К истории развития узбекской семьи // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент: Фан, 1972.

²²Борозна Н. К вопросу о формах семьи и полукочевых узбеков (на материалах узбеков-дурменов) // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – Москва. Наука, 1978.

²³Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва. Наука, 1976.

²⁴Насриддинов К. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. – Тошкент. Мерос. 1996.

²⁵Турсунов С., Пардаев Т., Курбонов А., Турсунов Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти-Сурхондарё этнографияси. – Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.

²⁶Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент. Академнашр. 2012.

²⁷Умаров И. Кўхитангтоғ кишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Термиз. 2022.

yaxlit ish sifatida o'rganilgan emas. Shundan kelib chiqilsa, mazkur mavzuni alohida ilmiy tadqiqot ishi sifatida tanlash lozimligi ayon bo'ladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti va Chexiyaning Karlova universiteti hamda, Termiz davlat universiteti va Fransiyaning Lyumer-Lion-2 milliy ilmiy tadqiqot markazi o'rtasida tuzilgan "Surxondaryo viloyatida arxeologik tadqiqotlar olib borish" mavzusiga doir shartnoma asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. O'rta Osiyo xususan Shimoliy Baqtriyaning arxeologik yodgorliklari sirasiga kiruvchi daxmalar va ularning tasnifini, moddiy topilmalari tipologiyasini fanga kiritish, moddiy manbalar asosida Sopolli madaniyatida mayitlarni boy ashyolar bilan qabrlarga qo'yish an'anasini yo'q bo'lib ketishi va Qadimgi Baqtriya ilk zardushtiylikning vujudga kelishi bilan bog'liq masalalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

"Avesto" matnlarida daxmalarning aks etishi bilan bog'liq jarayonlarni tavsiflash;

Qadimgi va o'rta asrlar davri mualliflari asarlarida daxmalarning talqinini yoritish;

Daxmalarning arxeologik tadqiqotlarda o'rganilishini tahlil qilish;

Kayrit daxmalarining joylashuvi va ularda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni ochib berish;

Kampirtepa, Zarabog', Qorabog', G'urjak va Laylagan daxmalarining joylashuvi hamda ularda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni yoritish;

Daxmalarning evolyutsiyasi va hudud bo'ylab yoyilishini o'rganish;

Shimoliy Baqtriya hududida ilk temir davri daxmalarining qurilish usullari va qazishmalarda aniqlangan ko'k rangli ma'danlarning tasnifini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida O'rta Osiyo hududiga kiruvchi Shimoliy Baqtriyaning Kuchuk I-II-III davri moddiy madaniyati, madaniy va diniy dunyoqarashi tanlangan.

Tadqiqot predmetini. Zarabog', G'urjak, Xo'jaulkon, Kampirtepa, Qorabog', Kayrit, Poshxurt, Xo'janqon va Laylagan hududlarida joylashgan toshdan terib yasalgan me'moriy inshoot qoldiqlari, sopollari, ko'k rangli bo'yoq ma'dan va boshqa topilmalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyani yozishda tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, xronologik tizimli tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Qazishma ishlarida mikrostratigrafiya usuli qo'llanildi, planigrafik tadqiqotlar fotometriya usulida qayd qilinib, topilmalarning kimyoviy tarkibi va xronologiyasi laboratoriyada tekshirilib natijalar qayd etib borildi.

Tadqiqotning yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston tarixida ilk temir davridan boshlab Baqtriya va unga tutash hududlarda Zardushtiylik dini hukmron dinga aylanganligi, mayitlarni moddiy ashyolar bilan ko'mish odatiga barham berilishi yozma (Avesto, Rigveda, pahlaviy,

arab va fors tili) manbalar va arxeologik (Kata, Daxma va Naus) yodgorliklar asosida dalillangan;

Shimoliy Baqtriyaning Ko‘hitangtog‘ oldi hududi (Zarabog‘, Qorabog‘, Kayrit, Kampirtepa, G‘urjak, Laylagan) da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan daxmalarning tuzilishi va qurilish uslublarini o‘rganish natijasida ularning ilk zardushtiylikka oidligi aniqlandi;

Ko‘hitangtog‘ tog‘ oldi hududidagi daxmalarda olib borilgan arxeologik qazishmalar orqali ularning toshdan terilganligi, turli (doira, oval, kapgir) shakllarda ega ekanligi, tosh qatlam ostida qabrlarning uchramasligini aniqlash natijasida zardushtiylikda daxma-yer ustida ishlangan va mayitlar etidan toza bo‘ladigan joy ekanligi isbotlangan;

Ko‘hitangtog‘ tog‘ oldi hududi Kayrit qishlog‘ida aniqlangan 3-raqamli daxma inshootida olib borilgan qazishmalar natijasida qo‘lga kiritilgan ko‘k rangli ma‘danlar zardushtiylik va etnografik manbalardagi ma‘lumotlar asosida ularning ushbu davr dafn marosimlarida keng qo‘llanilganligi, shuningdek, keyingi ko‘k rang motam timsoli ildizi ilk zardushtiylikka borib taqalishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda o‘rganilayotgan davr madaniyatiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalarning o‘ziga xos umumiy hamda xususiy jihatlari, miqdor va sifat darajasi aniqlandi;

Avesto, zardushtiylikning moddiy madaniyatda aks etishini yoritishda arxeologiya va yozma manbalarning kompleks tahlilining o‘rni ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan ilmiy yondashuv va usullar asosida birlamchi moddiy madaniyat manbalariga bag‘ishlangan adabiyotlardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqotning ilmiy natijalaridan ko‘p jildli “O‘zbekiston tarixi”ning so‘nggi bronza va ilk temir davri diniy an‘analari va qadriyatlari bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni yozishda, moddiy madaniyatini yoritishda, o‘zbek xalqi tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasiga oid o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratishda, barcha oliy o‘quv yurtlari va malaka oshirish kurslarida seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya qadimgi davrlar tarixi, geografiyasi va etnografiyasi tadqiqotlari uchun amaliy tajriba vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar uchun ta‘lim jarayonlarini yangi ma‘lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘rta Osiyo daxmalari (Shimoliy Baqtriya misolida) mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Shimoliy Baqtriyaning Ko‘hitangtog‘ tog‘ oldi hududi (Zarabog‘, Qorabog‘, Kayrit, Kampirtepa, G‘urjak, Laylagan) da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan daxmalarning tuzilishi va qurilish uslublarini o‘rganish orqali ularning ilk zardushtiylikka oidligi aniqlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar

“O‘zbekiston tarixi” telekanali “Ibtido” ko‘rsatuvining “Zardushtiylik dini tarixidan” mavzusidagi ko‘rsatuvni tayyorlashda foydalanildi. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DUK ning 2021-yil 22-fevraldagi 01-32-415-sonli ma‘lumotnomasi) Natijada tomoshabinlarda zardushtiylik dini dafn marosimlari haqida ilmiy bilim hosil qilingan.

Ko‘hitangtog‘ tog‘ oldi hududi Kayrit qishlog‘ida aniqlangan 3-raqamli daxma inshootida olib borilgan qazishmalar natijasida qo‘lga kiritilgan ko‘k rangli ma‘danlar zardushtiylik va etnografik manbalardagi ma‘lumotlar asosida ularning ushbu davr dafn marosimlarida keng qo‘llanilganligi, shuningdek, keyingi ko‘k rang motam timsoli ildizi ilk zardushtiylikka borib taqalishi haqidagi ma‘lumotlar “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Ibtido” ko‘rsatuvini “Marosimlarning shakllanish tarixidan” mavzusi ssenariysini tayyorlanishda foydalanildi (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DUK ning 2022 yil 23 dekabrda 01-32-2130-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada zardushtiylik dini dafn marosimlari evolyutsiyasi, shuningdek, uning moddiy madaniyatda aks etishi bo‘yicha ilmiy-ommabop ko‘rsatuv tayyorlangan.

Ko‘hitangtog‘ tog‘ oldi hududidagi daxmalarda olib borilgan arxeologik qazishmalar orqali ularning toshdan terilganligi, turli (doira, oval, kapgir) shakllarda ega ekanligi, tosh qatlam ostida qabrlarning uchramasligini aniqlash natijasida zardushtiylikda daxma-yer ustida ishlangan va mayitlar etidan toza bo‘ladigan joy ekanligi isbotlanganligi haqidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi Surxondaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi tomonidan yangi madaniy meroslarni xatlovdan o‘tkazish, ularni pasportlashtirish va hujjatlashtirishda foydalanilgan (Madaniy meros agentligi 2022 yil 7dekabr 01-12/4188-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu yodgorliklar turizm marshrutiga kiritish uchun xizmat qilishi bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan asosiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, chet el jurnallarida 3 ta, respublika jurnallarida 5 ta, xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy konferensiya va to‘plamlarda 11 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan bo‘lib tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini

amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "*O'rta Osiyo daxmalarining yozma va arxeologik manbalarda aks etishi*" deb ataladi va u uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf "*“Avesto” matnlarida daxmalarning aks etishi*" yoritilgan.

O'rta Osiyo xalqlari qadim diniy qarashlari va diniy urf-odatlarini mahsuli bo'lmish daxmalarning qurilishi va keng yoyilishiga, zardushtiylik dinining ezgulik va yovuzlik hamda poklik va nopoklik o'rtasida kurashi asosidan kelib chiqqan. Shu o'rinda tozalik ilohi sifatida *Chista* ma'budi keltirilgan bo'lsa, iflogarchilik va nopoklik sifatida *Nasu (Navs)* devi tarannum etilgan²⁸. Daxmalar esa ikki dunyo o'rtasi deb qaralgan va maxsus tepaliklarda qurilgan bo'lib, mayit ruhi osmonga, narigi dunyoga ketadi deb bilganlar. Shuning uchun mayitlar baland tog'larga yoki tepalik ustiga qurilgan daxmalarga qo'yilgan.

O'rta Osiyo daxmalarining kelib chiqishi, tadriji va vazifalarini yoritishda albatta zardushtiylik dinida dafn marosimlari, inshootlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Zardushtiylik dini dafn inshootlarining Videvdatda 3 xil turi qayd etilgan bo'lib, bular *Kata, Daxma va Uzdana* hisoblanadi.

Ilk temir davri zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan xalqlar murdalarni daxmalardan olmaganlar, daxmada odam suyaklari chang g'ubori bilan qorishib ketguncha turgan, keyin daxmalar buzib tashlangan. Ko'hitangtog' hududlarida qurilgan daxmalarning soni ko'p bo'lishining yana bir asosiy sababi ham shundaki, deyarli har bir kishiga maxsus tosh qalamalardan daxmalar bunyod etilgan²⁹.

"*Qadimgi va o'rta asrlar davri mualliflari asarlarida daxmalarning talqini*" deb nomlangan birinchi bobning ikkinchi paragrafida, qadimgi daxmalar va nauslar tarixini yorituvchi yozma manbalar tahlili haqida so'z boradi.

Qadimgi Behistun yozuvlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid muhim voqealar bilan bir qatorda, o'liklarni tog'-u toshlarga qo'yilish kabi dafn turi haqida so'z yuritilgan³⁰.

Antik yunon mualliflardan Gekatey³¹, Skilak³², Gerodot³³, Strabon³⁴, Pompey Trog³⁵ asarlarida dafn marosimiga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib unda baqtriyaliklar mayitlarni va qariyalarni toqqa tashlab kelishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, o'rta asrlar davri mutafakkirlari va tarixchilari tomonidan Naus dafn inshooti haqida ko'plab ma'lumotlar yetib kelgan. Xususan, Sibavayx tomonidan Naus bu Navas, Naos — so'zining ko'pligi sifatida majusiylar o'likni

²⁸"Avesto" Яшт китоби. Митра алқови, М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент. Шарқ, 2001. – Б. 67.

²⁹Шайдуллаев Ш., Станчо Л., Тошалиев Қ. "Қабрсиз маданият" дахмалари // "Ўзбекистон археологияси" журнали. №4, [23] 2020. – Б. 27-43.

³⁰Струве В.В. Поход Дария I на саков-массагетов. Изв. АН СССР, 1946, №3. – С.229-250; Струве В.В. Восстание в Маргиане при Дарий I. Материалы ЮТАКЭ. Вып. I. – Ашгабад, 1949. – С. 9-34; Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. – Москва-Ленинград., 1959. – С.140-149.

³¹Пьянков И.В. Хорасмий Гекатея Милетского // Вестник древней истории. 1972. – С. 2-6.

³²Сулаймонова Ф., Шарқ ва ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон. 1997. – Б. 42-43.

³³Геродот. История в девяти книгах. I, III, VII, IX.

³⁴Страбон. "Географии", XI, II, 3; XI, II, 8.

³⁵Помпей Трог I. – С. 45-60.

qo‘yadigan yog‘och, tosh va shunga o‘xshash narsalardan yasalgan quti yoki joy deya ta’rif berilgan bo‘lsa³⁶, Muhammad Hakim Termiziy esa *Naus* - bu yumshoq to‘qimalardan tozalangan suyaklar joylashtiriladigan qurilma deya ta’rif beradi. Yana Muhammad Hakim Termiziy, Termiz yaqinida joylashgan *Naus* (novvus) xarobalarini ziyorat qilishlarini bayon etgan³⁷. Abu Rayhon Beruniy ham “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida *Naus* (novvus)ga to‘xtalgan³⁸.

Tabariy va Narshaxiylar o‘z asarlarida o‘lkada zardushtiylardan qolgan ko‘plab daxmalar va suyaklar saqlangan nauslar bo‘lganligini³⁹, o‘rta asrlarda asosan daxma va nauslar bir inshoot shaklida yasalganligini va Devashtichni o‘ligini Arbinjondagi nausga qo‘yilganligini ham ma’lum qilgan⁴⁰.

Zardushtiylik dini va u bilan bog‘liq amallar va diniy inshootlarni yo‘q bo‘lib ketishi asosan makedoniyalik Aleksandr bilan bog‘lansa⁴¹, dinning O‘rta Osiyo hududlaridan butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga arablarning bosqinchilik yurishlari sabab bo‘lgan. O‘lkani fath etgan arablar hududdagi barcha qadimiy an‘analar va diniy urf-odatlarini qat’iyan taqiqladilar, yoki amallarni bajarishni istovchilarga soliq joriy qildilar. Shu zaylda nafaqat diniy urf-odatlar balki qadimiy qo‘lyozmalar va noyob me’moriy yodgorliklar ham yo‘q qilindi⁴².

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “*Daxmalarining arxeologik tadqiqotlarda o‘rganilishi*” deb nomlanib, ushbu paragrafda O‘rta Osiyo hududlarida zardushtiylik dini bilan bog‘liq inshootlarning o‘rganilishi, ularning hududlari va tasnifi keltirilgan, shuningdek, daxmalar va nauslarning o‘ziga xos xususiyati haqida so‘z boradi.

Zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi, uning g‘oyalarining ildizi keng tarqalganligi, “Avesto” davri jamiyati va dinning dafn marosimi bilan bog‘liq urf-odatlarini shakllanishi hamda rivojlanishi, din bilan bog‘liq amallar qatorida diniy inshootlarning ham keng tarqalganligini tarixchi va arxeolog olimlarning tadqiqotlarida kuzatishimiz mumkin.

Xususan, E.V.Rtveladze Kampirtepa yodgorligida Videvdatda tilga olingan kata, daxma va uzdana kabi dafn inshootlarini⁴³, R.X. Sulaymanov Qadimgi Naxshab harobalarida mil. av. II asrda bunyod etilgan Yerqo‘rg‘on daxmasi⁴⁴, S.P.Tolstov esa Xorazm hududidagi mil. avv. IV-milodiy VI asrlarga oid Chilpiq daxmalarini⁴⁵ o‘rgandi. Shuningdek, S.R.Baratov Xorazm hududida joylashgan Xumbuztepa yodgorligida Mazda ibodatxonasi va daxmasini tadqiq qilgan va uni Yoz II

³⁶Sibavayh. Doktor Ali Tavfiq Al-Hamad tarjimasi, San’at kolleji — Yarmuk universiteti — Irbid – Ummon.1987. – B. 371.

³⁷Мухаммад Ҳаким Термизий рисолалари, Журабек Чўтматов таржимаси. – Тошкент: 2017. – Б. 46-47.

³⁸Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T. I. – Toshkent. Fan. 1968. – B. 546-547.

³⁹Табарий. Тарих. IV, 143,103, II, 621 б; Мухаммад Наршахий. История Бухары. – Ташкент. 1897. – С.15-19.

⁴⁰Ртвеладзе Э.В. Зороастризм в Бактрии // “Авеста” и его место в истории развития человечества. – Ташкент-Урганч, 2001. – С. 99-102.

⁴¹Страбон, “География”, IX, XI; Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. I. // Танланган асарлар. – Тошкент. Фан. 1968. – Б. 238.

⁴²Аскарлов А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент. Университет. 2007. – Б. 188.

⁴³Ртвеладзе Э.В. Зороастризм в Бактрии // “Авеста” и его место в истории развития человечества. – Ташкент-Урганч,2001. – С. 99-102.

⁴⁴Сулаймонов Р. Нахшаб - нутилган тамаддун сирлари. – Тошкент. 2004. – Б. 11-12.

⁴⁵Толстов С.П., Итина М.А. Проблема суярганской культуры // СА. – 1960. -№1. – С. 31-32.

davriga oidligi ta'kidlab, O'rta Osiyodagi eng qadimgi daxma sifatida e'tirof etgan⁴⁶.

G.A.Pugachenkova va E.V.Rtveladze O'zbekistonning janubiy hududidagi Xolchayon va Yalangto'shtepa yodgorligida⁴⁷, B.A.Litvinskiy esa Tojikistonning janubi-g'arbiy hududida joylashgan Ushtur-Mullo, Xisht-tepa, Xirmon-tepa, Amir-bobo va Tepai-Shoh yodgorliklarida ham zardushtiylik bilan bog'liq inshoot qoldiqlarini o'rgangan va mayitlarni xumga solib ko'milganligini qayd etgan. Mualliflarning fikricha, mayitlar itlarga em qilingan yoki o'tkir uchli pichoqlar bilan tozalangan bo'lishi mumkin⁴⁸.

V. Kryukova va B.A.Litvinskiyning ta'kidlashicha, daxma bino sifatida, ehtimol ba'zi hollarda etidan ajratilgan mayitlar uchun joy, boshqalarida esa allaqachon tozalangan suyaklarni saqlash joyi bo'lishi mumkin⁴⁹. Shuningdek, V.I.Sarianidi tomonidan Shimoliy Afg'oniston hududidan yotgan holatdagi ikki o'lik tasviri aks etgan baqtriyaliklarning bronza muhri⁵⁰ topib o'rganilgan.

O'rta Osiyodan tashqari, Kavkazdagi qadimgi zirixgrantliklarga tegishli bo'lgan Narin Qala yodgorligi yaqinida tog' toshlarini o'yib bunyod etilgan 7 ta daxmalar qoldiqlari⁵¹, Rossiyaning Xakasiya avtonom Respublikasi hududida ko'chmanchi Andronovo madaniyatining Fedorovo bosqichiga oid bo'lgan "Avesto" matnlariga mos ravishda bunyod etilgan daxmalar aniqlangan⁵².

Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida joylashgan Ko'ktosh⁵³, Bittepa (Chag'oniyon), Munchoqtepa (Farg'ona), Dombobod, Toshavtomash, Qatortol (Choch), Jettiosor (Orol bo'yi) kabi yodgorliklarda ham Hilxona, Naus va Daxma qoldiqlari o'rganilganligi⁵⁴, ilk o'rta asrlarda zardushtiylik odatlarining jamiyat hayotida o'rni yuqori bo'lganligidan dalolat beradi⁵⁵.

⁴⁶Баратов С.Р. К проблеме истоков и хронологии урбанизированной культуры Хорезмского оазиса // Древности Восточной Европы, Центральной Азии и Южной Сибири в контексте связей и взаимодействий в Европейском культурном пространстве (новые данные и концепции). Материалы Международной конференции. 18-22 ноября 2019 г. — СПб. Том I. — С. 143-145; Баратов С. Р. Новые данные по археологии Южного Хорезма // АУ. №1(6). — Самарканд, 2013. — С. 27-59.

⁴⁷Пугаченкова Г.А. Халчаян // К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. — Ташкент. 1966. — С. 241-242; Ртвеладзе Э. Могильник кушанского времени у Ялангуштепе // Советская археология. №2. 1983. — С. 125-143.

⁴⁸Пугаченкова Г., Ртвеладзе Э. Северная Бактрия-Тохаристан. — Ташкент. 1990. — С. 82.

⁴⁹Литвинский Б.А., Седов А.В. Тепаишах: культура и связи кушанской Бактрии. — Москва. Наука, 1983. — С. 113; Хисматуллин А.А., Крюкова В.Ю. Смерть и похоронный обряд в исламе и зороастризме. — СПб: «Петербургское Востоковедение», 1997. — С. 207-219

⁵⁰Сарианиди В.И. ЗадолгодоЗаратуштры. — Москва. Старыйсад. — С. 90-91; Abdullaev K. Funerary Tradition of the Ancient East in Examples from Anatolia and Bactria-Margiana. Origins or Parallels. // TÜBA-AR. Türkiye Bilimler Akademisi Arkeoloji Dergisi. Turkish Academy of Sciences Journal of Archaeology. Sayı: 20, Volume: 20. — Ankara. 2017. — P. 27-50.

⁵¹М. С. Гаджиев. Зороастрийский погребальный комплекс близ Дербента // Журнал российской археология 2007. №4. — С. 51-63.

⁵²Vitalij E. Larichev, Sergey A. Parshikov, Elena G. Gienko, The Dakhmas of Khakassia // Archaeoastronomy and Ancient Technologies 2016, 4(1). — P. 117-149.

⁵³Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Самарқанд 2009. — Б. 101-110.

⁵⁴Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Самарқанд, 2009. — Б. 251-252.

⁵⁵Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Самарқанд. 2009. — Б. 253.

Dissertatsiyaning II-bobi “O‘rta Osiyoning ilk temir davri daxmalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar” deb nomlangan va ushbu bobda Ko‘hitangtog‘ etaklarida joylashgan ilk temir davri daxmalari haqida so‘z boradi. Ko‘hitangtog‘ tizmasi va uning eng baland nuqtasi Ayri bobo (ota) cho‘qqisi joylashgan, uning balandligi 3139 m⁵⁶ tashkil qiladi. Ushbu tizmaning boldirida tarixiy etnografik nomlari mashhur bo‘lgan Poshhurud-Zarabog‘, G‘urjak, Xo‘janqon, Xatak, Laylagan va Panjobsoy botig‘lari joylashgan. Ko‘hitangtog‘ hududlari bo‘ylab joylashgan qishloqlar XX asrning 60-yillaridan boshlab B. Karmisheva, S.N.Tursunov, T.Pardaev⁵⁷, E.O.Qobilov⁵⁸, A.Ashirov⁵⁹, I.Umarov⁶⁰ va boshqalar etnografik va tarixiy voqelikni⁶¹, E.V.Rtveladze, Z.A.Xakimov, T.K.Mkrlichev, S.B.Bolelov, D.Y.Ilyasov, K.Kaniut, A.Sh.Shaydullayev, N.D.Dvurechenskaya, V.V.Mokroborodov, X.Duke, A.Boboxo‘jayev va T.Annayevlar tomonidan esa arxeologik jihatdan o‘rganilgan⁶².

O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi yangi tadqiqotlari davomida Ko‘hitangtog‘ yon bag‘rida joylashgan qishloqlarning arxeologik dinamikasi va tarixiy jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha stratigrafik shurflar qazildi. Shurf yordamida dehqonchilik maydonlarining insoniyat tomonidan o‘zlashtirish davri va dinamikasi aniqlandi hamda tarixiy voqeiliklar bilan solishtirildi⁶³.

Maydon qishlog‘ining shimoliy qismida Kuchuk I davriga oid Gazaqo‘ton yodgorligi aniqlandi. Ushbu yodgorlik Maydonsoydan 65 m balandlikda joylashgan, toshdan qurilgan mudofaa devoriga ega. Yodgorlikdan Ko‘hitangtog‘ landshaftini va atrofdagi Qorabog‘, Zarabog‘, Kampirtepa va Sholqon qishloqlarini bemalol kuzatish mumkin⁶⁴. 2017-yildagi dala qidiruv tadqiqotlarida G‘oz qishlog‘i va uning

⁵⁶Средняя Азия. Физико-географическая характеристика. – Москва, 1958. – С. 84: Ҳасанов И.А., П.Н.Фуломов, Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. (2 қисм). – Тошкент, 2009. – Б. 97.

⁵⁷Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Тошкент: “А.Навоий” номидаги ЎзМ кутубхонаси. 2007; Махмадиёрова Н. Турсунов С.Н., Пардаев Т. Сурхондарё – этнографик макон. – Тошкент. Академнашр, 2012.

⁵⁸Турсунов С., Кабулов Э., Муртозаев Б. Сурхондарё тарихи. – Ташкент. 2004.

⁵⁹Аширова А. Ўзбек халқининг қадимий этник код ва маросимлари. – Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.

⁶⁰Умаров И.И., Раҳмонов Х.Э., Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). – Тошкент, 2014.

⁶¹Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (По этнографическим данным). – Москва, 1976.

⁶²Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. – Ташкент, 1973; Ртвеладзе Э.В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. – Ленинград, 1974; Мкртычев Т.К., Болелов С.Б., Илясов Д.Я. Исследования на юге Узбекистана // Археологические открытия 2004 года. – Москва. 2005.; Мокробородов В.В. Керамика эпохи бронзы из кишлака Пашхурт // Археологические исследования в Узбекистане — 2004-2005 годы. Выпуск 5. -Ташкент, 2006; KaniuthK., GruberM., KurmangalievA., SagdullaevA., MakkiM., BiroP. TillaBulak 2009. Vorbericht zur dritten Kampagne // Archaologische Mitteilungen aus Iran und Turan. Band 42. Berlin, 2010; Двуреченская Н.Д., Двуреченский О.В., Мокробородов В.В., Рукавишников И.В., Рукавишников Д.В. Маршрутные исследования на юге Узбекистана в 2013 году // КСИА, № 236.2014. – С. 69–82; Дукс Х. Новый могильник тюркского времени в Южном Узбекистане // Успехи среднеазиатской археологии Выпуск 3. – Ленинград, 1975; Бобохаджаев А., Аннаев Т., Рахманов Ш. Некоторые итоги изучения древних и средневековых памятников предгорной и горной полосы Кугитанг-Байсунтау. История материальной культуры Узбекистана № 23.

⁶³Augustinova A., Stanco L., Shaydullayev Sh., Mrva M. Archaeological Survey in the Zarabag Micro Oasis (South Uzbekistan), Preliminary Report on the Season 2015 // Studia Hercynia XIX/1.

⁶⁴Augustinova A., Stanco L., Damašek L., Khamidov O., Kolmačka T., Shaydullayev Sh. Archaeological Survey in the Oases of Maydon and Gozin the Piedmont of the Kugitang Mountains (SouthUzbekistan) – Preliminary report for season 2017 *Studia Hercynia* XXI/2. – Prague, 2017. – P. 144.

dehqonchilik maydonlaridan bronza davriga oid 6 ta va Kuchuk I davriga oid 3 ta yodgorlik joylari aniqlandi⁶⁵. Aynan shu tadqiqotlar mobaynida hudud bo'ylab o'rganilgan tosh qalamalar (daxmalar) va ularning arxeologik talqini keng o'rin oladi.

Dastlabki ilmiy farazga ko'ra o'rganilayotgan ushbu daxmalar qo'rg'onlar deya talqin etilgan bo'lib, ushbu tosh qalamalari tadqiqotlar natijasida daxma ekanligi ma'lum bo'ldi⁶⁶. Quyidagi yangi kashf etilgan daxmalar Yoz I madaniyati va Sopolli madaniyati obyektlari bilan bir xil davrga tegishli bo'lib, mutloq xronologiyasi mil. avv. II ming yillik bilan davrlashtirilgan⁶⁷.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi, *Kayrit daxmalarining joylashuvi va ularda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar* deb nomlangan bo'lib hududning o'rganilishi va tadqiqotlarni qamrab olgan.

Kayrit daxmalari O'zbekiston va Chexiya arxeologlari tomonidan 2014-yilda aniqlangan bo'lib, tadqiqotlar natijasida Kayrit hududidan 68 ta tosh qurilmalari aniqlandi. Ushbu inshootlar umumiy 315 ga maydon ichida joylashgan. Ularning asosiysi doira shaklida bo'lib, oval shaklda bo'lganlari nisbatdan kamroqdir.

O'zbek-Chex ekspeditsiyasi tomonidan 2008-yildan buyon sun'iy yo'ldoshdan olingan rasmlar tahlili asosida o'rganilib kelinayotgan tosh qalama sifatida yasalgan konstruksiyalar⁶⁸, qo'rg'onlar emas balki arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar tomonidan bunyod etilgan daxmalar ekanligi ma'lum bo'ldi⁶⁹.

Ushbu o'rganilgan daxmalarning ikkita asosiy ko'rinishi mavjud.

1. Asosan tekislikda joylashgan kichik hududdagi katta to'plamlardan iborat kichkina daxmalar.

2. Tabiiy tepaliklar ustida qurilgan, siyrak yoyilgan kichik to'plamlardan iborat katta daxmalardir.

Kichkina to'plamlar kengroq yoyilgan. Asosan ikkita hududda o'rganilgan. Kampirtepa hududining sharqiy qismida kattaroq shakllar butunlay yo'q bo'lib ketgan. Kichik o'lchamli shakllar tekislikda saqlanib qolgan.

2015 — 2017 yillar oralig'idagi uchta dala tadqiqoti O'zbekiston — Chexiya arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Sharqiy Ko'hitangtog' old (Janubiy O'zbekiston) hududida olib borildi. Tadqiqot davomida ushbu hududda 400 ga yaqin turli xil tosh inshootlar ham topilgan va hujjatlashtirilgan. Ular ichida qo'rg'on yoki

⁶⁵Augustinova A., Stančo L., Damašek L., Mrva M., Shaydullayev Sh. Archaeological Survey of the Oases of Zarabag, Karabag and Kampyrtepa in the Piedmont of the Kugitang Mountains, South Uzbekistan – Preliminary Report for the Season 2016 // *Studia Hercynia*, XXI/1, 2017. – P. 143. Tab. 3.

⁶⁶Шайдуллаев Ш., Станчо Л., Тошалиев Қ. “Қабрсиз маданият” дахмалари // “Ўзбекистон археологияси” журнали. №4, [23] 2020. – Б. 27-43.

⁶⁷Stančo L., Shaydullayev S'h., Bendezu-Sarmiento J., Pažout A., Vondrová H., Kayrit Burial Site (South Uzbekistan) // Preliminary Report for Season 2014. *Studia Hercynia* XVIII/1-2. – P. 31–41.

⁶⁸Stančo L. The Activities in Uzbekistan in the 2008 Season: Testing the Google Earth as a Tool for Archaeological Prospecting. *Studia Hercynia* XIII, 2009. – P. 120.

⁶⁹Тошалиев Қ. Кўхитангтоғ дахмалари // “Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: “Внешинвестпром”, 2019. – Б. 121-128.

qandaydir konstruksiya borlari alohida ro'yxat qilinib ularning soni hudud bo'yicha 122 tani tashkil qildi⁷⁰.

Arxeologik jihatdan o'rganilgan Kd_01_007, K_01_008, Daxma Kd_01_014, Daxma Kd_01_16, Kd_03_003, Kd_03_007, Kd_03_010, Kd_01_007 olib borilgan qazishmalar shuni ko'rsatadiki ushbu daxmalarning barchasi zardushtiyalar diniy urf-odatlarini tamoyillari asosida bunyod etilgan bo'lib, mutloq xronologiyasi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi va mil. avv. V asrlarga to'g'ri keladi.

Qazishma jarayonida ushbu tosh konstruksiyasi ostidan artefaktlar yoki boshqa arxeologik materiallar topilmadi; ammo, tosh uyumining janubi-sharqiy chekkasida 25 sm. chuqurlikdagi relyef darajasida K01_016_004; diametri 50×40 sm.; o'lchamli, 10 sm. chuqurlikdagi yassi toshlardan bunyod etilgan, o'ziga xos yo'lakchaga o'xshash tosh konstruksiyasi aniqlandi. Qazishmalarda uchratilgan chuqurlar aynan poklanish maqsadida qazilgan va shu chuqurga siydik yoki suv olib kelingan idish sindirib chuqurga yoki chuqur ustidagi toshlar tepasiga tashlanib, nas balosi tekkan idish sindirilgan bo'lishi mumkin.

Kd-01-003 va Kd-01-004 daxmalarining diametri 7.70-7.80 m² bo'lgan tosh strukturasi namoyon bo'ldi. Kd-01-003 daxma toshlari tozalab bo'lingandan so'ng, tosh qalamasi Kd -01-004 daxmaga qarab yo'naldi.

Daxmaning sharqiy qismi birinchi qatlamida ko'k rangdagi ma'danga o'xshash bo'yoqlar topildi. Topilma markazdan shimolga qarab 50 sm. o'lchamda tosh ustida sachrab yotgan holda birin-ketin aniqlandi. Bunday holat qandaydir diniy odatlar bilan bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi⁷¹. Chunki "Avesto" da ko'k rangga alohida e'tibor berilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Kampirtepa, Zarabog', Qorabog', G'urjak va Laylagan daxmalarining joylashuvi hamda ularda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar*" deb nomlangan bo'lib, ushbu paragrafda hudud haqida hamda unda joylashgan daxmalar va ularda olib borilgan tadqiqotlar xususida so'z boradi.

Qorabog'ning shimolida 21 tadan ortiq katta daxmalarning to'plami o'rganilgan. Bu shakllar shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi, Ko'hitangtog' tog'laridan shakllangan soylarning qirg'og'i yonbag'ri va vodiylarining ustki qismidagi

tepalikda joylashgan. Zarabog' qishlog'idan uncha uzoq bo'lmagan, vodiyni g'arbiy yonbag'irlarida daxmaga o'xshash, toshlardan tartibsiz terib qurilgan turli xil tuzilmalarning katta guruhi aniqlangan bo'lib, o'rganilgan shakllar ro'yxatiga kiritilgani yo'q. Ehtimol bular ekin maydonidan terib to'dalangan toshlar bo'lishi mumkin. ZBd daxmalari 66.715388N 37.76817E. Nosimmetrik (asosan oval) ko'rinishdagi (umumiy diametri 1.85 m) 243 ta juda kichik tosh tuzilmalaridan iborat. Tekislikning pastki qismi bo'ylab 15 ta tosh bo'laklari tuxum shaklida zich joylashgan. Qolgan o'n to'rtta bo'lagi g'arbiy kenglik yonbag'irlarida joylashgan. Ushbu guruh bilan birgalikda asosiy hududda doira shaklga ega ikkita katta hajmdagi,

⁷⁰Stančo L., Shaydullayev Sh., Bendezu Sarmiento J., Lhullier J., – Kysela, J. Shaydullayev A., Khamidov O., Havlik J. – Tlustá J. Preliminary Report on the Excavations at Burgut Kurgan in 2015 // Studia Hercynia XX №2. 2016. – P. 86–111.

⁷¹Шайдуллаев Ш., Тошалиев Қ. "Авеста" даври археологиясида кўк ранг ифодаси // Ўзбекистон археологияси. № 1 (26) 2022. – Б. 14-24

toshlardan tartibli holda terilgan daxmalar aniqlangan. Hududda 14 ta buloq (Qo‘tirbuloq, To‘pxona, Gumbaz, Ravshanbuloq, Quruqsoybuloq va b.) va 15 dan ortiq korizlar aniqlangan bo‘lib dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay hudud hisoblanadi. Zarabog‘ qishlog‘i hududidagi dehqonchilik maydonlar 425 ga ni tashkil etadi. Dehqonchilik vo‘ha hududida olib borilgan kuzatuvlar davomida dala maydonlarida turli davrlarga oid sopollar aniqlandi⁷².

Laylagan daxmalari Ko‘hitang tog‘ etaklarida joylashgan bo‘lib, Xomkon va Xatak qishloqlaridan oqib keluvchi soy bo‘ylab yoyilgan. Laylagan qishlog‘i vodiysidagi qo‘rg‘on sifat qurilgan daxmalar ancha keng hudud bo‘ylab tarqalganligi bilan Zarabog‘, Qorabog‘, Kayrit daxmalaridan farq qilishi aniqlandi. Ushbu hududda o‘rganilayotgan tosh uyumlari ostida mayitlarning yo‘qligi Qozog‘iston hududlarida o‘rganilgan qo‘rg‘onlardan farq qilishini va daxma ekanligini isbotlaydi.

G‘urjak daxmalari Laylagan hududlaridan sezilarli darajada farq qiladi. G‘urjak qishlog‘ining shimolida, G‘urjak 8 nomli daxmalar guruhi baland platoda joylashgan. G‘urjak qishlog‘ining shimoli va Xo‘janqon qishlog‘ining janubi oralig‘i bir-birini bog‘lab tepalik shaklida tog‘larga tutashib ketgan. Bu hududda tosh uyumlar birinchi marta 2016-yilda L.Stancho tomonidan qayd etilgan⁷³. Xo‘janqon qishlog‘ining g‘arbida Kaptarkamar g‘oridan esa 2016-yilgi tadqiqotlarda Yoz I davridan to ilk o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrni aks etuvchi arxeologik ashyolar aniqlangan⁷⁴.

